

OBUNANI BOPLASAK...

Ishonasizmi, bizning mabkabda o'tkazilgan til bayramiga «Tong yulduzi»dan muxbir keldi. O'zbek tiliga bag'ishlangan she'r-qo'shiqlardan so'ng, gazeta haqida suhbatlashdik. Bu yil sevimli gazetamizga qirqta o'quvchi yozilgan bo'lsak, uchrashuvdan so'ng keyingi yildagi obunani boplamoqchimiz.

Ziyoda MAHAMADJONOVA,
Toshkent shahridagi

270-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi

Eslatma: ushbu mabkab haqidagi maqola va o'quvchilarining ijodlaridan namunalarni keyingi sonda o'qishingiz mumkin.

CHIROYLI SO'ZLANG

Sizning mabkabingizda ham o'zbek tili bayrami o'tkazilgan bo'lsa kerak. Bilasizmi, yurtboshimizning «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» asarida til haqida ham o'rni fikrlar bor. Bu kitobda «Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'ttasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ldi», deyilgan. Shuning uchun, siz yoshlar, tildan to'g'ri foydalaningiz kerak.

Nilufar QODIROVA,
Toshkent PTI qoshidagi
akademik litsey o'qituvchisi

TIL - DIL KALITI

Biz - yosh avlod Mus-taqillik sharofati ila qadimiy tilimiz imkoniyatlarni chiqur o'rganoqdamiz. Nafaqt biz, balki xorijda ham tilimizga bo'lgan qiziqish barchani faxrlantiradi.

Muxlisaxon
TO'LAGANOVA,
Toshkentdag'i
22-maktabning
II-«V» sinf
o'quvchisi

2008-yil
27-oktabr
N:43
(66688)



«Obuna - 2009»da
ishtirok eting va
qimmatbaho sovg'alar
sohibi bo'ling!



Nashr
ko'rsatgichimiz: → 198

Birinchi navbatda Xalq ta'lifi vazirligi tizimidagi mabkablar va mabkabgacha tarbiya muassasalariga!

Mamlakatimizning porloq kelajagini yaratishga qat'iy bel bog'lagan litsey va kollej talabalariga!

Eng sevimli nashrlaringiz «Tong yulduzi», «Klass» gazetalarini hamda «Gulxan» va «Guncha» jurnallariga 2009-yil uchun obunani eng ko'p tashkil qilgan quydigilarga noshir «O'zbekiston» nashriyot matbaa ijodiy uyi tomonidan qimmatbaho sovrinlar ajratildi. Ular quydagieha:

Bu mukofotlar «Obuna - 2009» mavsumi yakuniga ko'ra,

1. «Eng namunali Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi, Toshkent shahri va viloyat Xalq ta'lifi boshqarmasi»ga 3 ta sovrin: 1 dona televizor, 2 dona magnitofon.

2. «Eng namunali tuman xalq ta'lifi bo'limi»ga 3 ta sovrin: 1 dona televizor, 2 dona magnitofon.

3. «Eng namunali maktab, litsey, kollej»ga 6 ta sovrin: 3 dona televizor, 3 dona magnitofon.

noshir va gazeta-jurnallar tahririylari komissiyasi tomonidan 1-3 o'rnlarga qarab taqsimlanadi va sovrindorlarga tantanali ravishda topshiriladi. Bundan tashqari, hay'at

nashrlarning eng ibratli tashviqotchilarini 13 ta magnitofon bilan taqdirlashni rejalashtirgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar, tumanlar xalq ta'lifi bo'limlarini, mabkablar, litsey va kollejlar jamoalarini «Tong yulduzi», «Klass», «Gulxan», «Guncha» gazeta-jurnallari uchun «Obuna - 2009» mavsumini namunali tashkil etishga da'vat etamiz.

Mabkablar va eng faol tashkilotchilar Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi va viloyatlar xalq ta'lifi boshqarmalarining tavsiyasiga binoan aniqlanadi. Natijalar obunani qabul qilib olgan aloqa bo'limi tomonidan muhr bilan tasdiqlanishi shart. G'oliblar yil so'ngida Respublika hay'ati tomonidan obuna yakuniga ko'ra aniqlanadi va kelgusi yilda gazetamizning ilk sonida e'lon qilinadi.

«Obuna - 2009» mavsumini namunali tashkil qiling va sovrindorlar safidan o'rning!

OBUNA - 2009

«SIZGA NIMA» DEMANG...

Aziz tengdoshim! Sizga kattalar tanbeh berishganida, qanday qabul qilasiz? Bizni to'g'ri yo'lga solmoqchi bo'lgan insonlar nima uchun nazarimizda aql o'rgataveradigan, yoshi o'tib, ezmoroq bo'lib qolg'andek tuyuladi. Masalan, bir kuni avtobusda ketayotganimda, bir otaxon bema'nii so'zlarni gapirayotgan bolalarga tanbeh berdilar. Shunda atrofagilar «Sizga nima» degandek qarab qo'yishdi. Men esa o'ylanib qoldim: nima uchun ba'zilar o'zlarini loqayd bo'lib, yana to'g'ri gapni qo'llab-quvvatlashni bilishmaydi. Kattalarning ana shunday ikki xil munosabatlari ham yoshlar tarbiyasining buzilishiga olib keladi. Ba'zan o'qituvchimizning nasihatlarini ota-onalar to'g'ri qabul qilmaydilar. Ba'zan otaning gapini ona ma'qullamay bolani taltaytiradi. Lekin, nima bo'lganda ham, biz o'quvchilar shuni unutmasligimiz kerakki, bizning vazifamiz faqat a'lo o'qish emas, xulqimizni ham yaxshilashdir.

*Muqaddas OQMAMATOVA,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi
13-maktabning 7-sinf o'quvchisi*

Bizning tarjima

«MEN HAM QO'RQAYAPMAN»

Senda uy hayvoni bormi? Petya va Shurada esa tipratikan bor. Bu haqda mana bu hikoyani o'qib ko'r:

Kunlardan bir kuni Petya va Shura uyda yolg'iz qolishibdi. Ularning otanalarini uyda emasdilar. Kechqurun edi. Petya va Shura chiroqni o'chirib yotishibdi. Kutilmaganda ular tiqir-tiqir ovozini eshitib qolishibdi.

— Men qo'rqayapman, — debdi Petya.

— Men ham qo'rqayapman, — debdi Shura.

Petya endi gapirmoqchi ekan, lekin yana tiqirlagan ovoz eshitilibdi. Petya va Shura karavotga sakrab, ko'rpa bilan boshlarini berkitib yotib olishibdi.

— Gapirma, — debdi Petya.

— Sen ham sekinroq nafas ol, — debdi Shura.

Birozdan so'ng, yana tiqir-tiqir, tiqir-tiqir tovushlari eshitilibdi. Nihoyat, ota-

onalari uylariga kelishibdi. Petya va Shura ularga bo'lgan voqeani aytishibdi. Ular bu narsa nimaligini bilish uchun xonaning atrofini tekshirib chiqishibdi.

— Voy, bu tipratikan ekan-ku! — debdi Shura karavot tagidagi mitti, kulrang, dumaloq narsani ko'rgandan so'ng.

Bolalarning onasi tipratikanga sut beribdi, ammo u sutni ichish uchun yaqiniga ham bormabdi. Ular chiroqni o'chirib yotishibdi va ko'p o'tmay yana qandaydir ovozni eshitishibdi. Bunday qarashsa, tipratikan mazza qilib sutni ichib qo'ygan ekan. Unga sut juda yoqib qolibdi. Bolalar ham tipratikanni yoqtirib qolishibdi. Shunday qilib, tipratikan ularning eng sevimli jonivoriga aylanibdi.

*Ingliz tilidan Saida ORMONOVA tarjimasiga,
249-maktabning 9-sinf o'quvchisi*


Biz suhatlashayotgan mana bu quvnoq kichkintoylarning ko'plari jazzi uka va singillari bilan ularning qo'llaridan ushlab, o'z bog'chalariga doimo birga borishar ekan. Qanday ajoyib-a, to'g'rimi?

— Javohir, Sherzodjon bog'chaga borayotganida xarxasha qilmaydimi?

— Yo'q, ukam o'zimga o'xshaydi.

— Nodiraxon, Anvarjon aytayotgan qo'shiqlarini sizdan o'rganganmi?

— Avvallari men o'rgatardim, endi



UKAM QO'SHIQ AYTADI

bog'cha opasidan o'rganyapti. Ukam qo'shiq aytishni yaxshi ko'radi.

— Kamronbek, faqat shaxmat to'garagiga qatnaysizmi?

— Yo'q, bog'chamizdagini ingliz tili, musiqa

to'garagiga ham boramiz. Laziza Alovuddinova va adashim Kamronbek Islomov shahrimizdagini barcha bog'chalar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada I-II o'rinni olishdi. Yana biroz

RASSOMLAR LITSEYI

Surxondaryo viloyatida qo'li gul tengdoshlaringiz talaygina. Ular tasviriy va amaliy san'at litsey-internatida tahsil olishadi. Bilasizmi, bu dargoh binosining peshtoqi ham tasviriy san'at bezaklari bilan bezatilgan. Litsey rahbari Xudoysukur Mamataliyev tashabbusi bilan turli tadbirlar o'tkaziladi. O'quvchilarning ijodlaridan namunalar qo'yilgan ko'rgazmalarini ku sanamasak ham bo'ladi. Yaqinda poytaxting Markaziy ko'rgazmalar zalida o'tkazilgan «Bunyodkorlik jarayonlari – musavvir nigohida» nomli yosh rassomlar ko'rgazmasida mazkur litsey o'quvchilaridan Maftuna Botirova va Obidjon Qodirov namunali ishtiroy etishdi.

Tohir MAMATQULOV,
Surxondaryo viloyati



NABIRASI IJODKOR

Rahmatjon aka nevarasi Xurshidabonu Rahmatjonovani tahririyatimizga olib keldi. Xurshidabonuga havas qildik. Chunki hamma ham nevarasini yetaklab, uning uchun qanot bo'lishga vaqt topavermaydi.

— Xurshidabonuni bu yerga o'zim olib kelganim yo'q, — deya gap boshladi u kishi. — Uni bu yerga shu gazetaga bo'lgan mehr olib keldi. Ilk she'rlari aynan shu gazetada chop etildi. Xullas, sizlarning birgina e'tiboringiz tufayli unda hayotga bo'lgan ishonch, intilish hissi oshdi. Bundan biz ham, o'qituvchilar ham xursandmiz.

— Abdulla Qodiriy, Muhammad Yusuf, Iqbol Mirzo kabi yozuvchi, shoirlarning kitoblarini o'qishni yoqtiraman, — deydi Xurshida iymanib. Biz esa yuzlarida kulguchi bor bu qizchaga oq yo'l tilab qoldik.

o'rgansam, men ham ularga yetib olaman.

— Zilola, Turkiston saroyida bizga ko'p-ko'p sovg'alar berishdi, dedingiz-a. Nima uchun?

— Sabina, Sevara, Omina barchamiz ukalarimiz, singillarimiz bilan «O'zbekiston – Vatanim manim» festivalida qo'shiqlar kuylab, g'olib bo'ldik. Bizga bir quchoq gullar hadya etishdi.

Kichkintoylar Toshkent shahrining Yakkasaroy tumanida joylashgan 484-maktabgacha ta'l'muassasasi tarbiyalanuvchilari. Mudira Nigora Alixonova, tarbiyachilar Shohida Saidova, Nuriya Begqulova, O'lmas Olimova, Muhabbat Muhiddinova, Ra'no Soqiyeva, Munira Isroilovanning shirinsuxanligidan bolajonlar mammun. Nutq va jismoniy tarbiya yo'nalishi bo'yicha bolajonlarni maktabga tayyorlayotgan bu muassasada kichkintoylar dastlabki kompyuter saboqlarini ham o'rganmoqdalar.

Bir so'z bilan aytganda, inoqlikda gap ko'p ekan. Siz ham bu bolajonlardan o'rnak oling!

JAMILA

3008

Tong yulduzi
27-oktabr

Xorijda naqd pul muomalada kam ishlataladi

IQTISODIY SABOQLAR

asosan chek daftarchalari, plastik kartochkalar, bank cheklaridan foydalanishadi. Ularga, ya'ni banklar o'z mijozlariga ma'lum miqdordagi mablag'dan qarz tariqasida foydalanishlari uchun kredit kartochkalardan ham foydalanish imkoniyatini yaratib berishadi.

Hozirgi kunda bizning mamlakatda ham banklarni zamонави xizmat ko'rsatish tizimiga o'tkazish uchun keng miqyosda tashkiliy hamda amaliy ishlar olib borilmoqda. Ko'pgina tashkilot va muassasalarda ishchi-xizmatchilarining maoshlarini u yoki bu bankning plastik kartochkalariga o'tkazib, pullik xizmatni zamонави yo'nga qo'yamoqdalar. Bu o'z navbatida



HAR BANKNING MAQSADI BOR

Xo'sh, bankning o'zi nima? Mamlakatimiz iqtisodiyotini, xalqimiz turmushini harakatlantirishga asosiy omil bo'lgan pul muomalasini boshqarib turgan banklarning roli ganday?

Bu savollar endi katta hayotga qadam qo'yayotgan har bir o'smirni qiziqtiradi. Chunki ota-onasining kuchg'ayrati, fidoyi mehnati evaziga kelayotgan daromadni to'g'ri sarflashni har bir o'g'il-qiz ham yaxshi bilishi kerak.

Bank fransuzcha va italyancha so'zlarning ifodasi bo'lib, «vanqiye», «vanso» degan atamalardan kelib chiqqan. Banklar vaqtincha bo'sh pul mablag'larini to'plash, korxonalarga kredit (qarz), ssuda berish, naqd pulsiz hisob-kitob qilish, pul va turli qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish, kredit mablag'larini muomalaga kiritish, oltin va chet el valyutalari bilan bog'liq jarayonlari kabilar bilan shug'ullanuvchi kredit-moliya muassasasi hisoblanadi.

Mamlakatimizda 30 ta bank mavjud bo'lib, ularning tizimi yaxshi rivojlangan.

Zamonaviy binolar, eng mukammal kompyuter va boshqa texnika vositalari, eng bilimdon va malakali mutaxassislar el xizmatida. Hozirgi kunda xalqimizga ana shu banklar xilma-xil xizmat turlarini ko'rsatishmoqda. Bu moliyaviy tizimda davlat, ixtisoslashgan va xususiy banklar faoliyatini muvofiqlashtirib turishda Markaziy bankning boshqaruvi katta ahmiyatga ega.

U mamlakatning barcha kredit tizimini nazorat qiladi, davlat pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, naqd pul va qimmatli qog'ozlar bilan shug'ullanadi, oltin zahiralarni saqlaydi, davlat va tijorat banklarga kreditlar beradi.

O'zbekistonda «Milliy bank», «Xalq banki», «Paxtabank», «G'allabank», «Aloqabank», «Asakabank», «Ravnaqbank», «Alp Jamol bank» singari ko'plab davlat, ixtisoslashgan va xususiy banklar mavjud.

Ilgarilari bankir so'zi juda ommalashgan. Bu nom bilan bank egasi yoki bankning yirik aksiyalari, gohida bank xodimi tushunilgan. Hozir ham bu so'zning mohiyati o'zgarmagan va xalq o'rtasidagi mazmun mohiyati yana-da kengayib bormoqda.


Bank ishining asosiy yo'nalishlari depozit (omonat) pullarni qabul qilish, kreditlar berish va mijozlarga kredit-hisob xizmati ko'rsatishni amalga oshirish hisoblanadi.

Xorijda naqd pul muomalada kam ishlataladi. Aholi

naqd pul muomalasida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etmoqda, aholini yangicha savdo qilishga o'rgatmoqda.

Bu masalaning yana bir tomoni bor: bizning xalqimiz azal-azaldan erkin savdoga o'rgangan. Sharq bozorining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Shuni e'tiborga olib, plastik kartochkalardan samarali foydalanish uchun bozorlarga bankomatlar qo'yilgan. Ular orqali plastik kartochkalar egasi bankomatlar orqali istagan naqd pulini olishi mumkin.

Bankomatning o'zi nima? U muayyan bankka qarashli avtomatik qurilma bo'lib, bankning o'zida yoki aholi gavjum joylarda, savdo tarmoqlarida, bozorlarda o'rnatiladi va bank mijozining o'ziga berilgan plastik kartochka orqali qat'iy belgilangan raqam



bo'yicha naqd pul olishiga xizmat qiladi.

Qadrli bolalar! Aholiga naqd pul muomalasida namunali xizmat ko'rsatish har bir bankning asosiy maqsadi. Buning uchun banklarda turli foizli xizmat ko'rsatish turlari joriy etilgan. Ana shu bank va uning keng tarmoqli tizimiga munosib, malakali kadrlarni tayyorlashda bizning Toshkent bank hisob-kredit kollejimizning xizmati katta. Bu ilm dargohimizda hozirgi kunda 3000 ga yaqin yigit-qiz kunduzgi va sirtqi bo'limlarda ta'lim olmoqdalar. Ular bank ishi va banklarda hisob-kitob bo'yicha mutaxassisliklarni puxta egallab, o'zlarining sevimli kasblarini amalda to'la namoyish etmoqdalar.

Kelajakda siz ham maktabdagagi o'qishni a'lo baholarga tugallab, bizning kollejga kelsangiz, dunyoda eng nufuzli va taraqqiyotimizning muhim omili bo'lgan banklarda ishlash imkoniyatiga ega bo'lasiz.

**Marhabo USMONOVA,
Toshkent bank hisob-kredit
kolleji o'qituvchisi**

Internet xabarlari

BOLA - ASALARI

Kemerov kardiomarkazida yuragi tekshiruvdan o'tkazilgan chaqaloq 5 kamerali yurak bilan tug'ilgani aniqlangan. Bunday yurak faqatgina asalarilarda bo'lishi shifokorlarni hayratga soldi. Bolakayning yuragi quvon-ganida yoki yig'laganida, og'ir his-hayajonni ko'tara olmasligini bilgan shifokorlar xavotirga tusha boshlashdi. 6 soatlik jarrohlik davomida shifokor Andrey Noxrin bolakayning ortiqcha yurak bo'lmachasidan xalos etdi. Natijada, oltinsoch bolakay – asalari oddiy odamchaga aylandi.

ENG TEZKOR SAYYORA

Britaniyalik astronomlar tomonidan Quyosh tizimidan tashqarida eng qaynoq va eng tezkor sayyora aniqlangan. Uning issiqligi 2200°i bo'lib, o'z yulduzi atrofida 1 sutkada aylanib chiqishi ma'lum bo'ldi. WASP – 12bi deb nomlangan ushbu sayyora Jupiter-dan 1,5 barobar katta bo'lib, o'z yulduzi ustidan

o'tayotgan vaqtida aniqlandi. Ushbu holat WASP dasturi doirasida Kanar orollari va Afrikadagi 2 teleskop yordamida yuzaga keldi. Sent-Endryu universiteti astronomi Lesli Xebbing so'zlariga qaraganda, bunday tezkor sayyora birinchi marta kuzatilmogda.


BALIQ SOTISH TAQIQLANDI

Ukrainada 1,9 ming tonna baliq mahsulotlari tekshiruvdan o'tkazildi. Tekshiruv natijasida 98 foiz baliq mahsulotlari sifat bo'yicha standartga mos kelmasligi aniqlangan. Muzlatilgan, dudlangan, tuzlangan baliqlarni sifat sertifikatisiz

sotayotgan korxonalarga savdo qilish taqiqlab qo'yildi. Aybdorlarga qonunda ko'rsatilgan miqdorda jarima solinishi belgilandi.

ZAHARLANGAN O'QUVCHILAR

Volgogradda 6-sinf o'quvchisi maktabga noma'lum o'simlik olib kelib, sinfdoshlari bilan birligida uni tatib ko'rishgan. Oz fursat ichida o'quvchilarning ahvoli og'irlashib, markaziy tuman shifoxonasiga olib kelinganlar. Qon bosimi pasayib, qoni kamaygan 6-7-sinf o'quvchilarining 20 nafaridan 4 nafari jonlantirish bo'limiga yotqizilgan. Zaharli o't iste'mol qilgan o'quvchilarning qolganlariga tez yordam ko'rsatilib, uyda davolanishga ruxsat berilgan.



Tahririyatimizga kelayotgan xatlar orasidan tanaffus chog'ida bo'lib o'tgan xush va noxush voqealar haqdagi maqolalarni saralab, «Quvnoq tanaffus» nomli yangi rukn tashkil qildik. Maqsadimiz, tanaffusingizning yana-da qiziqarli, maroqli o'tishiga hissa qo'shish.

Xo'sh, aziz bolajonlar, sizning tanaffusingiz qanday o'tyapti? Shular haqida albatta yozing. Yana, boshqotirmalar ham tuzib yuboring, tengdoshlaringiz bir bosh qotirishsin!



JASUR O'YLAMAY GAPIRDI

Sinfdoshimiz Azamat a'lochi, ziyrak bola edi. Lekin ota-onasidan bevaqt ayrib qoldi-yu, juda kamgap, hammadan o'zini olib qochadigan bo'lib qoldi.

Bir kuni katta tanaffusda Jasur degan bola bilan urishib qolishdi. Jasur ko'pchilikning orasida Azamatni «Yetimcha, sen yetimchasan», deya haqorat qildi. U esa indamay sinfdan chiqib ketdi.

Jasur o'ylamay gapirgan bu gapi bilan Azamatning dilini qanchalik og'ritganini bilarmikin?!

Shahlo IMOMOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Nafis san'at litseyi o'quvchisi

BIZ KATTA TANAFFUSDA...

Katta tanaffusni intiqlik bilan kutamiz. Chunki u juda qiziqarli o'tadi. Dugonalarim bilan quvnoq hangomalar, qiziqarli voqealar aytib o'tiramiz. Kimning hikoyasi kulgiliroq bo'lsa, o'sha g'olib bo'ladi. Yaqinda men hayotiy bir voqeani so'zlab bergandim, qizlar rosa kulishdi va men g'olib bo'ldim.

Qo'shnimiz Munisa bilan bog'chaga birga qatnardik. Yaqinda onasi yoniga chaqirib:

– Dugonang Aziza onasi dam olayotganda, xalaqit qilmay, jimgina o'ynicholarini o'ynab o'tirarkan. Sen esa meni dam olishga qo'yamsan, – debdi.

Shu kuni tushlikdan so'ng Munisa:

– Oyijon, endi men ham sizga xalaqit qilmayman, bemalol dampingizni olavering, – debdi.

Oradan 15 daqiqa o'tar-o'tmas, endigina ko'zi uyquga ketgan onasini Munisa uyg'otib:

– Oyijon, endi men ham xalaqit qilmayapmanmi?

– deb so'rabi...

AZIZA



«BILIMDON» BOSHQOTIRMASI

B				B
I				I
L				L
I				I
M				M
D				D
O				O
N				N

1. Mahrum, bebahra.
2. Namunali.
3. O'zbekiston ... demokratik partiyasi.
4. O'zga uuda kelishuv asosida yashaydigan inson.
5. O'qituvchi.
6. Pul tushumi.
7. AQSH va Kanadadagi ko'l.
8. Nimjon, nogiron.

TILLAR HAQIDA NIMALARNI BILASIZ?

Yer yuzida 6800 xil til bor. Ular orasidagi antiqa til Grelandiya tili hisoblanadi. Chunki unda so'kish, haqoratlash so'zleri yo'q. Dunyodagi eng oson til Gavay tilidir. Unda oltita undosh va beshta unli harflar mayjud. Eng qiyin til esa Xitoy tilidir. Uni hatto xitoyliklarning o'zleri ham mukammal bilishmas ekan...

Bizning ona tilimiz dunyodagi eng go'zal va maftunkor tildir. U bizning eng buyuk, bebahbo boyligimizdir.

Zilola MUTALOVA

- Tovug'imiz tuxum qilmayapti, uni so'yishimiz kerak, – debdi onasi.
– Undan keyin tuxum qiladimi? – so'radi mittigina Ulug'bek.

Nabira buvisiga dedi:
– Buvi, sizga mazza-a, tishlaringiz yo'q, ularni yuvib, ovora ham bo'lmaysiz.

Dadasi: – Tarixdan yana «2» oldingmi? Men sening yoshingda tarixdan faqat «5» olardim.
O'g'il: – Sizga oson bo'lgan. O'shanda tarix 30 yilga qisqa bo'lgan-da...

– Akmal, nega keyingi paytlarda baholaring pasayib ketdi? – so'radi ota o'g'lidan.
– A'lochi Sobir boshqa partaga o'tib ketdi-da, dada...

Hamidjon POZILOV

MAZMUNLI

O'TGANI MA'QUL



Shayxontohur tumanidagi 59-maktab o'quvchilari tanaffusga chiqishdi. 7-«B» sinf o'quvchisi Mohi guli Pozilovaning aytishicha, qizlar


dam olish vaqtida o'zlarini biroz tartibga ham solib olishar ekan. Axir ozodalik o'quvchiga xos yaxshi odatlardan biri. Uning dugonasi Mubina Abdurahmonova esa bu vaqtadan unumli foydalananib qolishni o'ylar ekan:

– Men tanaffusda kutubxonadan olgan badiiy kitobimni o'qiyman. Chunki undagi voqealar juda qiziq, tezroq davomini bilgim keladi. Yoki kutubxonaga borib, yangi kitob olaman. Qizlar bilan bahribayt ham aytib turamiz. She'rning oxirgi harfiga she'r topib aytish-chi, bu bizning o'yinimiz-da!

Qarang, qanday yaxshi! Yaxshi o'quvchilarning dam olish daqiqalari ham maroqli va soz o'tadi. Ammo tanaffusda urishib ketadigan bolalar ham bor. Ular shunday zo'r paytni arzimagan sababga ko'ra tortishish bilan o'tkazishadi. O'yindan o'q chiqarishadi. Hovlida quv lash machoq o'ynayotgan 4-«A» sinf o'quvchilar esa bu fikrimizga qo'shilishmadi. Chunki ular o'zin-kulgini yaxshi ko'rishar ekan. Elyor Nuriddinov «Biz toza havoda yugurib, miyaga haqiqiy dam beramiz», deydi yugurishdan to'xtamay. Jasur esa suhbatimizga qo'shilib shunday dedi:

– Ba'zan sinfa o'tirib rasm chizamiz. Sinfimizda rasm chizishni qoyillatadiganlar ko'p. Shuning uchun kim zo'r chizish o'ynaymiz. Gazeta-jurnallardan o'qigan latifa, topishmoqlarimizni bir-birimizga aytib beramiz. Mana men bir kuni «Gulxan»da o'qigan latifamni aytib rosa bolalarni kuldirganman.

Aksariyat qizlar, menimcha, tanaffus vaqtida gaplashni, sirlashishni yaxshi ko'rishadi.



Bu yaxshi, albatta.

Ammo kerakli, bir-birlariga o'rnat bo'ladigan gaplardan gaplashsalar, qani edi! Afsuski, seriallar-u san'atkorlar hayoti haqida suhbatlashadigan qizlar ham bor ekan. Bizningcha, tanaffus nima bo'lganda ham mazmunli va unumli o'tgani ma'qul, nima dedingiz?!

Sizning tanaffusingiz qanday o'tmoqda?

Sayyora JO'RAYEVA



**Rasmga
qarab ertak tuzing.**

*Visolaxon Toshpo'latova
8-sinf o'quvchisi. She'riyat bo'stonida sayr
etishni yaxshi ko'radi.*

BOLALIK

Bolalik – qush,
Uchib ketar.
Uchib-uchib,
Ko'chib ketar.



Bolalik – qush,
Qaldirg'ochmas.
Shuning uchun
Ortga qaytmas.

ADASHMA

Har faslning gashti bor,
Go'zalligi, shashti bor.

Bahor – uyg'onish fasli,
Yashnab keladi asli.

Jilolanib kelar yoz,
Cho'milamiz juda soz.

**KITOBIM**

Bilimga konsan,
Nurga makonsan.
Qaynar buloqsan,
Menga o'rtoqsan.
Ko'zimga ziyo,
Tengi yo'q dunyo.
Sensiz bu olam,
Quyoshsiz go'yo.

*Visolaxon
TOSHPO'LATOVA*

YOMG'IR

*Birdan havo o'zgarib,
Yomg'ir yog'ib yubordi.
Quyosh bobo ko'rinnas,
Ayting, u qayga bordi?*

*Sochilgan xazonlarni,
Shamol o'ynab tortadi.
Oltin kuz yelkasiga,
Hosilini ortadi.*

*Yomg'irjon hech to'xtamas,
Bulut qovog'in solar.
Borliq uzra bir namxush
Havolar kezib qolar.*

*Daraxtlarning bargidan
Guldastalar yasadi.
So'ngra, yerning bag'riga,
Singib ketdi u asta.*



*Nilufar MATKARIMOVA,
Toshkent viloyati, Chilonzor
tumanidagi 126-maktabning
9-sinf o'quvchisi*

**KIM BO'LSAM
EKAN?**

*Men matabni bitirsam,
O'ylab qolaman pinhon,
Qiziq, kim bo'lsm ekan?
Kutar katta imtihon.*

*– Sen mening yorug' yuzum,
– Erkalatar dadamlar.
– Shifokor bo'l, jon qizim,
Rahmat, desin odamlar.*

*Oyim der: – Qizim dastyor
Uyda bo'lar ko'p yumish,
Sarishta bo'lar ro'zg'or;
Qo'lingdan kelsa tikish.*

*Xursand bo'lsin kattalar,
Bizga kerak e'tibor,
Tikishni ham uddalab,
Bo'layin zo'r shifokor.*

**HAR KUNIMIZ BIR
KITOB**

Bugun gazeta do'konlarida rang-barang gazeta va jurnallar ko'payib bormoqda. Bu yaxshi, albatta. Raqobat bor joyda o'sish, izlanish bo'ladi.

Tanlash, baho berish esa o'quvchiga bog'liq. Shuning uchun ham insonni sirli mo'jiza-yu xilqatlarga boy deyishadi. Ildizida sirlar yashirin bu dunyoning har bir kuni aslida bir kitob. O'qib o'rgansangiz, nurlariga sho'ng'iysiz. Agar yog'du sizga yoqsa, nur ustiga a'lo nur.

Bolalar, nima uchun aynan bu xislatlar haqida gapirayotganimni sezgandirsiz?! Sizni qo'lingizdan tutib, ana shunday bo'stonga olib kirishni niyat qildim. Maktabdagi tafsildan tashqari har biringiz o'zingizdag'i iqtidorni sinash, qadrlash maqsadida turli to'garak va tanlovlardarda ishtirok eting. Yutuqlaringiz esa gazeta sahifalarida yori tilganini ko'rsangiz, g'ayratingizga g'ayrat qo'shiladi.

Demak, bugungi ma'naviyatimizning munosib avlodisizlar. Ma'naviy tarbiya hamma davrlarda ham doimo o'z mas'uliyatini yelkangizga tashlaydi. Qachonki, qayerda va qaysi lavozimda ishlamang, ma'naviyat sizga osh-u non beradi.

Bilingki, ma'rifatparvar bobolarimizdan Abdulla Avloniyning: «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo momot, yo najot, yo falokat, yo saodat, yo halokat masalasidir», deya aytganlarida, ming bir hikmat bor.

Maqsadim, aziz bolajonlar, intilish va izlanish sizning eng sevimli mashhg'ulotingizga aylansin. O'z gazetangizni muntazam o'qing. Undan tengdoshlaringizning ibratli hayotini o'rganing. Yurtimiz yozuvchi va shoirlarining eng sara asarlarini toping. O'z vaqtida o'z fikringizni ham gazeta xodimlariga aytib turing. Chunki bu sizning gazetangiz. Yana bir narsani unutmangki, «Tong yulduzi»dagi munozarali, bahsli maqolalarni ustozingiz bilan birgalikda fikrlashishni o'rganing.

Xohlardimki, Respublika bolalar va o'smirlar, «Tong yulduzi» gazetasida bosilayotgan har bir xabar va maqolalardan maktab rahbari ham xabardor bo'lsa, qanday yaxshi...
*Salima SHAROPOVA,
Shayxontohur tumani xalq ta'limi bo'limi mudirasi*

**LOQAYDLIKKA KIM
AYBDOR?**

Zaminni zarafon ranglarga burkagan kuzning tarovati o'zgacha. Uning go'zal va beqiyos manzarasini ortiqcha so'zlar bilan izohlash shart emas, shunchaki «OLTIN KUZ» deya ta'rif berilsa, bas... Ammo, ming afsuski, kuz endilikda odamlarda allergik kasalliklarni rivojlantiruvchi fasl bo'lib qoldi. Bunga sabab nima? Ekologiya nega bu qadar o'zgarib ketdi? Menimcha, bu savollarga javobni uzoqdan emas, o'zimizdan izlashimiz lozim.

Tunov kuni ko'chaga bir bolakay chelagidagi xazonini ag'darib tashladi.

Men uni to'xtatib, nega bunday qilding, desam: «Bo'lmasa buncha axlatni uyingizga to'kamanmi?» deydiya! Vaholanki, xazon axlat emas. Tabiatda hech bir narsa keraksiz va nafisiz bo'lmaydi. Masalan, xazonlarni yerga bir-ikki ketmon urib, daraxt tagiga ko'milsa, u chirindi bo'ladi.

Lekin ba'zi bir xazonlarni aholi yashash joylarida yoqishadi. Axir xazonlarda zaharli modda bor-ku. Ularni yoqish orqali bu zaharni tabiatga va insonlar orasiga tarqalishiga sabab bo'lishayotganlarini ular bilisharmikin?!
– Xo'sh, aziz tengdoshlarim, siz qanday yo'l tutayapsiz? Ona tabiatimiz himoyasiga qanday hissa qo'shayapsiz?

*Dilrabo RASULOVA,
Sirg'ali tumani 277-umumta'lim
maktabining 9-«A» sinf o'quvchi*

BUGUNNING**«YANGI AVLOD» LARI**

Tanishing: «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivali g'olib Qoraqalpog'istonlik Aqilbek Piyozi. Aqilbek 8 yoshidan musiqaga alohida mehr qo'yib ulg'aydi.

U 4-sinfni yakunladi, o'zi tahsil olayotgan maktabning a'lochi, iste'dodli o'quvchilaridan biridir. U «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivalida «S» torli sozlar yo'nalishi bo'yicha ishtirok etdi. Tanlovdan ishtirok etgan ko'pgina yoshlar o'zlarining san'atini tomoshabinlar oldida namoyon etishni istashadi. Ana shu baxt Aqilbekka nasib etdi. U o'zining sevimli do'mbirasi bilan «Istiqlol san'at

saroyi»da o'z san'atini namoyon qildi. Aqilbek


musiqani yaxshi ko'radi, ustoz san'atkorlar yo'lidan borib, xalqning ko'ngliga manzur bo'ladigan kuy-qo'shiqlar yaratish niyatida.

– Men festivalda g'olib bo'lganimdan juda xursandman. Festival menga katta sahnaga chiqish, o'z san'atimni namoyish etish va ko'plab men kabi san'atga qiziqqan tengdoshlarim ijodi bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. Ularning ishonchini oqlashga harakat qilaman, – dedi Aqilbek.

Jajji san'atkorga omad.

*Nazokatxon va Nafosatxon
TOJIBOYEVALAR*

O'zbekiston xalq yozuvchisi
Pirimqul QODIROV - 80 yoshda



Qutlov

bo'stonimizning katta vakillari ijodini ham o'rganayotganlari tafsinga sazovor. Unga ustozning 2007-yilda «O'zbekiston» nashriyot-matbaa uyi tomonidan nashr etilgan «Amir Temur siyomosi» kitobini sovg'a qildim. Yosh do'stim bundan minnatdor bo'lib, tashakkur bildirdi. So'ngra, ikkimiz adib ijodi, u kishining sakson yoshga to'lgani, ba'zi asarlarining tahlili haqida so'zlashdik.

Albatta, bu ajib suhbat o'zimda ham katta taassurot qoldirdi. So'ng, o'yylanib qoldim: oilada turli g'idi-bidilar, bachkana gap-so'zlardan ko'ra, dasturxon boshida biror adibning ijodi, asari bahona suhbatlashib, murg'ak qalblarga ezzulik urug'larini sochish har jihatdan a'lo emasmi?! Mana, biz ikkimiz ustoz Pirimqul Qodirovning, «Avlodlar dovonii» haqida gaplashdik. Suhbatdoshimning savollari ko'payib ketdi. Men unga adibning tabiatga munosabatini eslatdim va kitobning bir joyini o'qib berdim: «Agradagi Zarafshon bog'ida baland gulmohur daraxtlari bor. Bu daraxtlar Navro'z arafasida butun barglarini birdan to'kadi-yu,

BU BOG'NING MEHRI BOR

Tahririyatimizga kelgan o'smirlardan biri o'zbek adabiyotini sevishini, uyida kitoblari juda ko'pligini aytdi, men qiziqish bilan uni savolga tutdim:

– Pirimqul bobongiz yaratgan bog'ni ko'rganmisiz?

Hazil ohangida aytigan gapim uning kipriklariga hayronlik bulutlari soyasini tashladi. Tushunmadni, behudaga qiyinadim, deya biroz xijolat tortib tursam, u beg'araz kulgancha:

– Pirimqul bobom parvarishlagan «Qadrim», «Uch ildiz», «Qora ko'zlar», «Yulduzli tunlar», «Avlodlar dovoni» daraxtlarining sarxil mevalaridan bahramand bo'lganman! – dedi.

Bu javobdan juda quvondim. Albatta, bolalarning kitob o'qiyotgani, boz ustiga, adabiyot

novdalaridagi shig'il g'unchalar birvarakayiga ochiladi. Shunda yaproqsiz novdalarning hammasi yirik-yirik qizil gullar bilan qoplanadi. Ulkan gulmohur daraxtlari qip-qizil gulxnlarga o'xshab ko'zni yondiradi. Shuning uchun bu ajoyib daraxtni olovli mohur ham deyishadi».

O'smirning ko'zlarida hayrat namoyon bo'ldi.

– Juda yaxshi tasvirlagan ekanlar-a! – dedi u havas bilan.

Bunday nozik tasvirlar juda ko'p. Ularni diqqat bilan o'qisangiz, o'zingiz uchun go'zallik qirralarini kashf eta borasiz. Qisqasini aytganda, bobongiz yaratgan bog'ning mehri bor. Bu mehr Sizni Vatanni sevishga, dunyonи asrashga, tabiatni e'zozlashga, o'z qadringizni bilishga o'rgatadi.

Gazetamizning ko'p ming sonli o'quvchilari nomidan O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirovni tabarruk 80 yoshlari bilan tabriklaymiz.

Akbar Dehlini o'n uch yoshida – g'alaba shodiyonasi kunida birinchi marta ko'rdi.

Tushga borib Akbar chanqay boshlaganida, ona-bola yana qimiz ichdilar.

Hamida begin unga... Salim ota aytgan so'zlarni eslatdi:



– Inson ham daraxt kabi moddiy ildizlardan oziqlanarkan, shoh o'g'lim! Qon bilan taraluvchi oziq ruhga quvvat berarkan.

– Lekin nafs bilan ko'ngil ruhning dashmanidir, – dedi Akbar.

(«Avlodlar devoni» kitobidan)

«Ma'rifatli va diyonatli ota-onal Temurbekka bolalik paytidan yaxshi tarbiya bergenlar. U axloqi pok, rostgo'y, mehr-u oqibatli farzand bo'lib voyaga yetdi».

(«Amir Temur siyomosi» kitobidan)




Sirajiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri

FARZANDI BOR ODAMLAR

Zavol nima bilmaydi,
Quyun, sellar yulmaydi.
Egasi bor bodomlar
Bu dunyoda so'lmaydi.

Goh qora, goh oq inson,
Ezgulik qil, oh, inson!
Riyosi bor raqamlar
Bu dunyoda unmaydi.

Imkoning osmon qadar,
Imondan bergil xabar.
Safosi bor qalamlar
Bu dunyoda sinmaydi.



O'kinmagil, bo'z bola,
O'zga xayol tuz, bola.
Vafosi bor sanamlar
Bu dunyoda bo'lmaydi.

Har na bo'lsang bor bo'lgin,
Tugal nomus, or bo'lgin.
Ziyosi bor qadamlar
Bu dunyoda so'nmaydi.

Dilda ko'pdir firog'ing,
Yoniq qolar chirog'ing:
«Farzandi bor odamlar
Bu dunyoda o'lmaydi».

Yillar bug'doyimni o'rib ketdilar,
Yellar qirimdan yuz burib ketdilar.
Bolajon, avayla jilg'alingni,
Mening daryolarim qurib ketdilar.


Bir xas shivirida qancha xabar bor,
Bir tosh zamirida qancha safar bor.
Bir go'r sukutida qanchalar sado,
Bir yulduz nurida qancha xatar bor.

Mening zohirim ham doxilim, ey dil,
Kelib to'xtaganim sohilim, ey dil.
Bu to'kin, serhosil dahr bog'ida
Mening arzimagan hosilim, ey dil.






Bo'sh kataknini to'ldiring.




Oxirgi qatorni to'ldirish uchun qaysi shaklni tanlaysiz?



Oxirgi domino toshidagi raqamlarni toping.

1	2	3	4	
5	4	3	2	


Uchburchak majmuasining ortiqchasiini olib tashlang.




Bo'sh kub raqamini toping.

2	3
6	
4	5
20	12
5	6

Quyidagi doira qatorini to'ldiring.



C qatorini to'ldiring.



Yusuf XUSHVAQTOV
tuzgan


BIZDA TO'GARAKLAR KO'P

Aziz tengdoshlar! Maktab siz uchun muqaddas dargoh, to'g'rimi?! Chunki u yerda ustozlaringiz sizga bilim beradilar. Ular darsdan keyin ham charchamay, har xil to'garaklarda o'quvchilarga hunar o'rgatishadi. Dars jadvalidan tashqari bizda turli o'quv mashg'ulotlarining ham jadvali bor. Bizning «Kichik akademiya» bunga bir misol. Bu akademiyada bo'lajak kichik olimlar-u yurtimizning dono yosolarini tarbiyalab kelayotgan o'qituvchilardan X.Ortiqboyeva, M.Shodiyeva, M.Atayeva kabilarni alohida aytib o'tish kerak. Undan tashqari, «Mohir



usta», «Mohir qo'llar», «Yosh biolog», «Russkoye slovo», «Qo'shig'im, jon qo'shig'im» va «O'zbek tilini o'rganamiz» to'garaklarida bolalarimiz bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazmoqdalar. Ayniqsa, ijodiy mashqlari bilan «Yosh muxbirlar» to'garagiga qatnashayotgan iqtidorli o'quvchilarimizning ijod namunalari gazeta-jurnallarda chop etilayotgani bizni quvontiradi. Umuman, har bir o'quvchimiz «Tong yulduzi» kabi bolalar nashrlarini sevib o'qishadi. Chunki gazeta maktab kabi bolalarga ilm-ziyo ularashdi.

Malika ABDULLAYEVA,
Sirg'ali tumanidagi 300-iqtidorli
va qobiliyatli o'quvchilar maktabi



Amerikalik dehqon Tad Starr Kaliforniyada har yili o'tkaziladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tanloving bu yilgi ko'rgazmasida muvaffaqiyat qozondi. Uning yetishtirgan qovog'i 693 kg.ni tashkil etdi va tanlovda g'olib deb topildi.

Tanlov shartiga ko'ra, g'olib bo'lgan kishi o'z mahsulotining har bir funti (taxminan 450 gramm) uchun 6 dollardan pul olishi kerak. Starrning qovog'i 9000 dollarga baholandi.

Buni chinakam rekord, desa bo'ladi!!

Buyuk sayyoh F.Magellan (1520-y) ummonni ekvatorga yaqin qismida hech qanday dovulga duch kelmay kesib o'tdi va bunday qulay ob-havo sharoitidan hayratga tushib, uni «Tinch okean» deb nomladi. Ammo kattaligi nuqtayi nazardan bu okean yana boshqacha nom bilan ham ataladi. Uning ikkinchi nomi Buyuk okeandir.

Miloddan avvalgi V-VI asrlarda Kichik Osiyo shaharlarida yashab o'tgan insonlarning yozma manbaalarida «Ming shahar o'lkasi», «Baland bayroqli go'zal davlat», «Quyosh o'lkasi» kabi ta'riflar ko'p uchraydi. Yunonlar bu ta'riflarni qadimgi O'zbekistonga nisbatan ishlatishgan.

Braziliyalik yozuvchi Paulo Koelonning «Al kimyogar» romanini dunyoda eng ko'p tilga o'girilgan asar sifatida e'tirof etilmoqda.

Shu munosabat bilan yaqinda Frankfurda bo'lib o'tgan xalqaro kitoblar ko'rgazma-yarmarkasida Paulo Koeloga «Ginnesning rekordlar kitobi»ning maxsus sovg'asi tantanali topshirildi.

1988-yildan buyon nashr etila boshlagan «Al kimyogar» romanini hozirga qadar 67 tilga tarjima qilingan. Bu asar o'zbek tiliga Ozod Sharafuddinov, Ahmadjon Otaboyev, Aziz Said tomonidan alohida-alohida tarjima qilinib, uch marta nashr etilgan.

Latviya maktablarida yangi o'quv yilidan boshlab turli shirinlik, qovurilgan kartoshka va saqich o'rniqa qizil sabzi sotish yo'lga qo'yildi.

Mazkur mahsulotlar sotuvini taqiqlashning sababi, ularda o'quvchilar sog'ligiga zarar yetkazuvchi kimyoviy moddalar mavjud. «S» vitanimiga boy sabzi esa bolalar sog'ligini tiklaydi va tafakkurlarini mustahkamlaydi.

Braziliyaning Santa-Katarina shtatida joylashgan ayrim maktablarda nonushtada bolalarga molyuskalar berilmoqda. Shifokorlarning ta'kidlashicha, bundan ko'zlangan maqsad bolalar organizmini yog' bosishi oqibatida yuzaga keladigan kasallikklardan xalos etishdi.

Kanadaning «Planon» «Bluetooth» printerini ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Ma'lumotlarga qaraganda, «Plints tik PC 950» nomli bu qurilma «Bluetooth» modelli telefon va noutbukdan ma'lumot olib, qog'ozga ko'chirish xususiyatiga ega. Atigi 700 gramm keladigan bu mitti printering bo'yи 25, eni 280 millimetri tashkil etadi. Bir daqiqa da 3 betli matnni chop eta oladigan bu asbob hozircha ikki yuz funt sterlingga (taxminan uch yuz ellik AQSH dollariga teng) baholanyapti.

Italiyadagi ayrim maktablarda darsliklar o'rnini kompyuterlar egallay boshladи. Mamlakatning «Olidata» kompaniyasi tomonidan o'quv dasturi kiritilgan maxsus noutbuklar ishlab chiqilgan.

Sakkiz yoshdan o'n yoshgacha bo'lgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan mazkur noutbuklar yerga yoki suvg'a tushib ketsa ham zyon yetmaydi.

Men o'g'il bolaman

DUNYO FUTBOLCHILARI
«TONG YULDUZI»DA

Ha, ishonavering, futbolsevar bolajonlar! Chindan ham shunday. Endi gazetangizning sport sahifasida millionlar o'yini futbol haqida so'z yuritamiz. Qani, bir qulq tutaylik-chi, unda dunyoning mashhur to'purarlari nima deyisharkin? Balki bu saboq sizning hayot yo'lingizga ibrat bo'lar... Albatta, siz o'qigan suhabatda ularning o'zlari «hikoya» qiladi.


HAVAS BO'LSA BAS...

— Bolalar, men «Real» darvozaboni Iker Kasil-yasman. Sizni dunyo futbolida hamma taniyi, deysizmi? Albatta, tanishadi-da. Axir mashhurlikka yetguncha bolaligimdan tinimsiz mashg'ulotlarda tobllanganman-ku! Endilikda yulduz futbolchilardan biriman. Daromadim ham chakkimas. Hozirda Kraysler RT Sruiser, Audi A6 va BMV X5 mashinalarim bor. Men bu avtoulovlardan tezlikni 80 km. soatdan oshirmayman. Ispaniyada muxlislarim ko'p. Ularning bari mendan dastxat yozib berishimni so'rashadi. Muxlislarim soni ko'pligidan quvonaman. Ammo, yaqindagina o'zim ham shunday muxlis bo'Iganimni, soatlab Piter Shmeyxel va Janluiji Buffondan dastxat olgim kelganini unutmayman. Ispaniya termo jamoasi safida 1-raqamda to'p tegmanman. To'p tepib, kam bo'Iganim yo'q. Ayni kunda niyatim dunyoning eng boy insoni Bil Geyts bilan uchrashish.

Faqat ortiqcha hayajonlanib ketmang, maslahatim, havasli bo'ling, murodga yetasiz!

«PUL DEB KELMADIM»

— Ayni paytda O'zbekiston daman, «Bunyodkor» degan jamoada yarim himoya chizig'ida o'ynayapman. Yurtingizni osh degan taomini yaxshi ko'ryapman. Agar imkonim bo'lsa, Toshkentda qolishim mumkin. Muxlislarim meni maydonda 10-raqamda ko'rishar edi. Endi esa 6-raqamda o'zbekistonliklar maydonidaman. O'zbekistonni nega tanladingiz, deysizmi? Axir O'zbekiston jannatning o'zginasiz-ku! Men faoliyatimda jahon championi, dunyoning eng yaxshi o'yinchisi, Yevropaning kuchli championatlari – Italiya, Ispanyaning bir necha bor championi va kubogi sohibi bo'Iganman. Bir mashhur futbolchi uchun yetarli boylikka ham egaman. Hayotning o'zi ertak ekan. Boyligim, o'ylab ko'rsam, yetarli... Shuning uchun yurtingizga faqat pul deb kelmaganman. Niyatim, o'zbek futboliga munosib ulush qo'shish. Ko'rib turganingizdek, Yevropadan uzoqdaman. Do'stlarim Kaka, Kafu va Roberta Karlos bilan deyarli har kuni telefonda gaplashaman. Ularga «Bunyodkor» dunyoning kuchli klublaridan «Chelsi»ga tenglashib ketishiga umid bor, degim keladi. Chunki «Bunyodkor»da ancha-muncha Yevropa klublari havas qila oladigan shart-sharoitlar yetarli.



BOBO SABOG'I

(Rauf SUBXONNING

«Salomatlik alifbosi yoxud Davronning bir kuni» kitobidan)

Men o'g'il bolaman, kelajakda sog'lom Vatan himoyachisi bo'lishim kerak.

Odam g'alabaga qanday erishadi? Qanday qilib baquvvat bo'lish mumkin? Davron ichida fikrlab, o'ylashda davom etardi.

O'qituvchisining to'satdan: – Davron! – deyishidan xushyor tortdi. Davronning turnikka osilish navbat kelgandi. U dadil borib turnikka osildi, lekin harakatlari ko'ngildagiday chiqmadi. O'qituvchisi esa soatiga qarab-qarab qo'yardi. Oqsoqol otini bog'lagach, o'quvchilar yoniga yaqinroq kelib:

— Men ham bir turniklaringga osilsam maylimi? – deb so'radi. Hamma bolalar hayron qolishdi. O'qituvchi ruxsat berdi.

Oqsoqol turnikka osilib, tanasini oldinga, orqaga harakatlantirdi. Keyin bir tomonga qarab chir aylantira boshladi. Bu sport tilida «solntse», deyiladi. Bunday

Foto-savollar
tarouza



BOKS

Muhiddin OMON

Bu shunchaki
mushtlashuvmas,
axir BOKS-bu!

Matonat-la har
bir inson
to'la-to'kis-ku!

Behuda vaqt
sarflamoqdan
o'zingiz tiying,

Qani, Siz ham
chetda turmang,
qo'lqopni kiying!!!

harakatni hatto o'qituvchisi ham ko'rsatmagan edi. Hamma hang-mang bo'lib qoldi.

Mashqni bajarib, harakatdan to'xtagan oqsoqol o'quvchilarga qarab:

— Men ham bir paytlar sizlarga o'xshab sust harakat qillardim. Keyinchalik harakat sirlarini o'rgandim. Bir o'rgangan harakatni qirq marta tez bajarishingiz uchun ko'proq ilm kerak bo'ladi. Eng avvalo, harakat paytida to'g'ri nafas olishni bilish zarur. Nafas olish mashqlarining

turlari esa yuzdan oshiq. Sizlar bizning kelajagimizsizlar. Harakat sirlarini albatta o'rganing. To'g'ri nafas olmagan odam tez charchaydi va g'alabaga ham erisha olmaydi. Shu qoidalarga rioya qilmasangiz, odamning kuchi yigirma-o'ttiz yilda tugab, quvvatsizlanadi, tez qarishi mumkin, – dedi oqsoqol.

O'qituvchimiz dars tugaganini bildiruvchi qo'ng'iroq chalinganiga ishora qilib, minnatdorchilik bildirgach, oqsoqol bilan xayrashdi.

Ma'mura MADRAHIMOVA
tayyorladi

TEZ

AYTISHLAR

Chori chayilgan choynakka choyni
chamalab soldi.

* * *

Yozda yoqqan yoz yomg'iri yon-atrofga yog'dek yodqi.

* * *

Temir tanli toychog'im,
Temir tish-la ter to'kdi.

Zahra HASANOVA



TABRIKLAYMAN

Oilamiz quvonchi va
sevinchi Rixsiox DADA-JONOVA! Seni 2-bahoring
bilan chin dildan
tabriklayman.



Xolajoning ZUHRA

Tong YULDUZI

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'Imagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin
SHOYODGOROV
Navbatchi:
Ma'mura
MADRAHIMOVA

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10
Rassom:
Feruz
MATYOQUBOV

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 21884
Buyurtma N: J 6215